

YuNESKOning medali o'z egasiga topshirildi

Avval xabar qilganimizdek, YuNESKOning Bangladeshdagi Xalqaro ona tili instituti tomonidan e'lon qilingan "Xalqaro ona tili mukofoti" tanlovining oltin medaliga "Ona tilining xalqaro miqyosdagi tadqiqi" yo'nalishida O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yosh tilshunos olimi G'ulom Ismoilov loyiq deb topilgandi.



21-fevral Xalqaro ona tili kuni munosabati bilan Bangladesh Xalq Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasida tantanali tadbir tashkil etildi. Mazkur tadbirda Hindiston Respublikasining O'zbekistondagi elchisi Manish Prabhat, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi vakili Ashita Mittal hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi vakillari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchi va talabalari, O'zbekistonning turli davlatlardagi faxriy elchilari ishtirok etishdi. Tadbir davomida Bangladesh Xalq Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisi janob Zahangir Alam G'.Ismoilovga ushbu mukofotni tantanali topshirdi.





Ma'lumot o'rnida, G'.Ismoilov FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining "O'zbek tili leksikasi va terminologiyasining mustaqillik davri taraqqiyotini tadqiq etish" fundamental loyihasi doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borib, 2011-yilda "O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lishi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Hozirgi kunda "Turkiy tillar frazeologizmlarining lingvokulturologik tadqiqi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida izlanishlar olib bormoqda.